Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320926

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

O'ZBEKISTONDA DAVLAT TIBBIY SUG'URTA VA UNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

To'xtayeva Moxinur To'raboy qizi
Guliston Davlat universiteti talabasi
mohi.2004no@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola bugun kundagi sharoitda tibbiy sug'urtaning qanchalik zarurligi va undan qanday maqsadlarda foydalanishini yoritilgan. Davlat tibbiy sug'urtasining joriy etilishi va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, tibbiy sug'urta, hayot sug'urtasi, majburiy sug'urtasi, risk, dori vositalari.

Kirish

Hayotimizda kutilmagan risklar juda ko'p. Aynan o'sha kutilmagan risklar inson hayoti uchun juda katta zararlar va xavf-xatarlar beradi. Aynan, o'sha muammo ilk bor o'z yechimini ya'ni sug'urta o'rta asrlarda dengiz orqali olib boriladigan savdodagi xavf-xatarlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Aynan o'sha muammolarni va xavf-xatarlardan yuzaga kelgan zararlarni qoplash maqsadida ilk kompaniya 1705-yilda "Umrbod sug'urtalash o'rtoqlik jamiyati" Londonda ochilgan. Keyinchalik, xavf-xatarlar va risklardan kelib chiqib, sug'urta bir nechta turlarga bo'lindi. Bular; hayot sug'urtasi, majburiy sug'urta, ixtiyoriy sug'urta, avtotransport sug'urtasi va h.k. bunday risklar va xavf-xatarlar barcha mamlakatlarda bo'lganligi bois, O'zbekistonda ham sug'urta tashkilotlari, kompaniyalari jamg'armalari tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasida ilk sug'urta kompaniyasi 1993-yilda tashkil etilgan. Bu kompaniya "O'zbekiston sug'urta kompaniyasi" nomi bilan faoliyat yuritgan va davlat tomonidan tashkil etilgan edi. Uning tashkil etilishi O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin, mamlakatda sug'urta sohasini rivojlantirish va boshqarish maqsadida amalga oshirilgan. Sug'urta to'g'risidagi 2002-yil 5-aprelda "O'zbekiston Respublikasi sug'rta to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. "Ushbu Qonun sug'urtani rivojlantirishning, sug'urta bozorini shakllantirishning huquqiy asoslarini, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sug'urtaning mavqei va o'rnini belgilab beradi, fuqarolar va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablari to'liqroq qondirilishini kafolatlaydi, sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarining manfaatlari himoya qilinishi va majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasida sug'urtaning deyarli barcha turlari mavjud. Bugungi kunda tibbiy sug'urtaga katta e'tibor qaratilmoqda. Tibbiy sug'urta bu sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishni osonlashtirish va moliyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida, tibbiy xizmatlarni sug'urtalashni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida tibbiy sug'urtaning shakllanishi:

- 1990-yillar boshlarida: O'zbekistonda davlat tomonidan sog'liqni saqlash tizimi to'liq davlat byudjeti va ajratilgan mablag'lar orqali moliyalashtirilgan. Sug'urta tizimi rivojlanmagan edi. Aholi uchun tibbiy xizmatlar asosan bepul edi, lekin bu tizimning samaradorligi va sifatiga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borardi.
- 2000-yillar o'rtalari: O'zbekistonda tibbiy sug'urtaning ixtiyoriy shakllari yuzaga keldi. Shu davrda xususiy sektorda ham tibbiy sug'urta kompaniyalari paydo bo'ldi. Bu davrda sug'urta kompaniyalari asosan yirik biznes tuzilmalari, chet el investorlari va korporativ mijozlar bilan ishlashga qaratilgan edi.
- 2010-yillar va 2020-yillarning boshlarida: Tibbiy sug'urta tizimi yanada takomillashdi. Boshqa davlatlar tajribasiga asoslanib, ixtiyoriy sug'urta polislari kengaytirildi, xususiy klinikalar va shifoxonalar bilan hamkorlik kuchaytirildi.

Published: 23.12.2024

Cite this article: To'xtayeva Moxinur To'raboy qizi (2024). O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urta va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320926

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Mamlakatda sog‘liqni saqlash islohotlari va tibbiy sug‘urtaning rolini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqildi.

- 2023 yilda: O‘zbekistonda majburiy tibbiy sug‘urta tizimi joriy etildi. Bu yangilik O‘zbekiston aholisi uchun keng qamrovli tibbiy xizmatlarni taqdim etishga yordam berish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va tibbiy xarajatlar bilan bog‘liq moliyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida amalga oshirildi. Majburiy tibbiy sug‘urta barcha fuqarolarni qamrab oladi va unga davlat tomonidan ma’lum bir paketlar taklif etiladi.

O‘zbekistonda tibbiy sug‘rta ikki asosiy turga bo‘linadi. Birinchi tur, majburiy tibbiy sug‘urta, bu sug‘urta turi 2023-yildan boshlab joriy qilindi va barcha fuqarolarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i asosida “Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi orqali moliyalashtiriladigan Respublika darajasidagi davlat statsionar tibbiyot muassasalarida bemorlarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 30-may kuni kuchga kirgan. Majburiy tibbiy sug‘urta davlat tomonidan taqdim etiladi va unga barcha ishchi va ish beruvchilar majburiy ravishda qatnashadi. Bu sug‘urta turida, asosan, aholining sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati ta’minlanadi. Ikkinchi tur, ixtiyoriy tibbiy sug‘urta, bu sug‘urta turini xohlagan fuqarolar o‘z ehtiyojlariga mos ravishda tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatini berish mumkin.

Tibbiy sug‘urtaning afzalliklari:

- sog‘liqni saqlashga kirishning yaxshilanishi, sug‘urta polisiga ega bo‘lish fuqaroga yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishni ta’minlaydi;
- moliyaviy xavfni kamayishi, kutilmagan tibbiy xarajatlr paytida sug‘urta qoplashni fuqarolarni moliyaviy qiyinchiliklardan himoya qiladi;
- tibbiy xizmatlarning diversifikatsiyasi, ixtiyoriy sug‘urta yordamida fuqarolar keng turdagi tibbiy xizmatlarga ega bo‘lish imkoni.

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta tizimi hali rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, bu sohada bir qancha muammolar mavjud. Bularni hal qilish uchun qo‘shimcha islohotlar va tizimni takomillashtirish zarur. Quyida O‘zbekistondagi tibbiy sug‘urta tizimida uchraydigan asosiy muammolarni keltirib o‘taman:

1. Tibbiy sug‘urta qamrovi va sifatining pastligi. Sug‘urta xizmatlarining cheklanganligi: Majburiy tibbiy sug‘urtaning joriy etilishi orqali aholining keng qamrovli tibbiy xizmatlardan foydalanishi mumkin bo‘lsa-da, ba’zi xizmatlar, jumladan, yuqori malakali jarrohlik amaliyotlari yoki eng zamonaviy diagnostika xizmatlari davlat tomonidan qoplanmaydi. Buning o‘rnini ixtiyoriy sug‘urta to‘laydiganlar qoplaydi, lekin bu faqat ayrim aholiga tegishli. Xizmatlarning sifati: Sug‘urta orqali taqdim etilgan tibbiy xizmatlarning sifati ba’zan past bo‘lishi mumkin. Buning sababi, sug‘urtalash tizimining yangi va qisqa muddatli bo‘lishi, shuningdek, resurslar va moliyaviy mablag‘larning cheklanganligi.
2. Ijtimoiy va moliyaviy adolatsizlik. Kam ta’minlangan guruhlarga ta’siri: Majburiy tibbiy sug‘urta tizimi barcha fuqarolarni qamrab olishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, kam ta’minlangan va qishloq joylarida yashovchi fuqarolar uchun sug‘urta to‘lovlari yoki tibbiy xizmatlardan foydalanish qiyin bo‘lishi mumkin. Ko‘plab aholi qatlamlari uchun tibbiy xizmatlar hali ham qimmatbaho va ularga to‘lovlarni amalga oshirish murakkab. Ishsizlik va byudjetdagi cheklovlar: Aholining ba’zi qismlari, ayniqsa ishsiz yoki notekis daromadga ega bo‘lganlar, sug‘urta to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirishda qiynalishi mumkin. Bu holat aholining tibbiy sug‘urta tizimiga kengroq kirishini cheklaydi.
3. Sug‘urta kompaniyalari faoliyatining shaffofligi va xizmatlarining ishonchliligi. Kompaniyalar o‘rtasidagi raqobat yetishmasligi: O‘zbekistonda tibbiy

sug‘urta bozorining rivojlanishining dastlabki bosqichida raqobat ancha past. Buning natijasida sug‘urta kompaniyalari ko‘pincha unchalik raqobatbardosh narxlar va xizmatlarni taklif qilishmaydi.Xizmatlar va to‘lovlar bo‘yicha aniq ma’lumotlarning yo‘qligi: Aholi uchun tibbiy sug‘urta xizmatlarining shaffofligi va to‘lovlarning aniq ko‘rsatmalari yo‘q. Bunday holatlar ba’zi fuqarolarni xizmatlardan foydalanishdan to‘xtatishi yoki noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqoladan xulosa shuki, O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta tizimi hali ham rivojlanayotgan sohaga kiradi, lekin bu tizim O‘zbekiston fuqarolari uchun sezilarni afzalliklar bermoqda. Tibbiy sug‘urtani aholi o‘rtasida keng tadbiq etish avvalo, aholini ishonchini oqlash va u tizimga ularni o‘rgatish lozim. Aynan, bu tizimni rivojlantirish bizning respublikada sekin natijalarga aylanib bormoqda, bunga, asosiy sabab urbanizatsiya jarayoni ham deb, o‘ylayman. Sababi, shaharlashish jarayoni tezlashishi va aholining unga moslashish qanchalik yuqori bo‘lsa, tibbiy sug‘urtaga ham ishonch va uni amal qilishi ham tezlashadi va yaxshilanadi. Bu tizimda insonlarning ishonchini sezilarli darajada bo‘lishi uchun bir necha takliflar berib o‘tamiz.

Takliflar

1. Aholida tibbiy sug‘urta emas, balki, sug‘urtaning barcha turlarini rivojlantirish uchun qonun-qoidalarning ishlashni tezlashtirish. Ko‘p hollarda sug‘urtani amalga oshirishda qonun-qoidalar va tekshiruvlarning ko‘pligi aholi uchun noqulayliklar keltirib chiqaradi va aholi bunday noqulayliklarni jabrlanuvchi bo‘lgan holida qabul qilolmaydi va sug‘urtadan voz kechadi.
2. Sug‘urta kompaniyalarining e’tiborsizligi. Bu risk paydo bo‘lgan holatda sug‘urtalangan fuqaroga birinchi bo‘lib sug‘urta kompaniyalarining murojaat qilmasligi hisoblanadi. Agar sug‘urta kompaniyasi sug‘urtalangan fuqaroga birinchi yordamni qisqa muddat ichida ko‘rsatsa, unda mijozlar sonining ko‘payishiga ham erishish mumkin.
3. Sug‘urta polisa va sug‘urta shartnomasiga ega bo‘lish uchun qisqa muddat va masofaviy murojaatni tashkil etish va uni takomillashtirish.

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtaning rivojlanishiga qaramay, bir qator muammolar mavjud. Bu muammolarni hal qilish uchun sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, tizimni shaffofroq qilish, xizmatlarning sifatini oshirish va tibbiy sug‘urta bozoridagi raqobatni kuchaytirish zarur. Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish, aholiga aniq va tushunarli ma’lumotlar taqdim etish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash tibbiy sug‘urta tizimini samarali qilishda muhim omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Sug‘urta ishi” X.M. Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G‘.Kenjayev o‘quv qo‘llanma
2. https://lex.uz/docs/-5739117
3. https://lex.uz/acts/-106047
4. https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/26/agricultural-risk-insurance/
5. https://imda.uz/oz/sugurta-qonuni-anjuman/

TADBIRKORLIK RIVOJI VA BANDLIK: AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH YO‘LI

Shavkatov Abdusalim Shavkat o‘g‘li
Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti Yangiyer filiali stajyor-o‘qituvchisi
abdusalimshavkatov9@gmail.com

Annotatsiya